



**KENGASH YI'G'ILISHINING MAJLIS
BAYONIDAN KO'CHIRMA**

Toshkent shahar

№ 2024/08

2024 yil "01" iyun

Yig'ilish raisi:

O. Isakov (shaxsan)

Ishtirok etdilar:

Kengash a'zolari:

U. Muxtarov (shaxsan)
M. Atadjanov (shaxsan)
X. Mustafaev (masofadan)
Yu. Ayzup (masofadan)
F. Tuinstra (shaxsan)
O. Sivokobilska (masofadan)
G. Robins (shaxsan)
G. Chiladze (shaxsan)

Korporativ maslahatchi

K. Alimov (shaxsan)

Taklif etilganlar:

Boshqaruv a'zolari:

S. Ismagilov (shaxsan)

Bank Bosh ofisi bo'linmalarining
rahbarlari va mutaxassislar

F.Abduraxmanov, A.Xujamuratov,
D.Sadirov, M.Nabiev, D.Kalanov,
Yo.Sultonov, M.Eshmatov, B.Sagdullaev,
A.Orifjonov, D.Xujaev, F.Xujaev,
Sh.Xalilov, A.Yokubjanov, A.Tuychiev,
B.Mullajanov, Ye.Soy, O.Sulaymonov.,
A.Rustamov, M, Tangishev.

Kengash majlisida 9 nafar Kengash a'zosidan 6 nafar a'zosi shaxsan, 3 nafar a'zosi Zoom videoaloqa kanallari orqali on-line rejimida ishtirok etdi. Shunday qilib, Kengash majlisining kvorumi ta'minlandi.

Kengash majlisining kun tartibi:

1. 2023 yil uchun Bank Kengashi va Boshqaruvining yillik hisoboti loyihasi, hamda Bankning rivojlanish strategiyasi bajarilishi uchun ko'rilayotgan choralar to'g'risidagi xisoboti.

2. 2023 yil uchun yillik hisobot loyihasi (axborotni oshkor etish bo'yicha talablarga muvofiq).

3. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning 2023 yildagi moliyaviy faoliyatini tekshirish natijalari bo‘yicha tashqi auditorning xulosasi.

4. Tashqi auditorni tanlash bo‘yicha ma‘lumot, 2024 yil uchun bank faoliyatining auditi bo‘yicha uning xizmatlari haqini to‘lashning eng yuqori miqdorini belgilash.

5. 2023 yil uchun yakunlari bo‘yicha foydani taqsimlash va bank aksiyalari bo‘yicha to‘lanadigan dividendlarning miqdorini belgilash, 2024-2025 korporativ yili uchun har bir Kengash a‘zosiga to‘lanadigan mukofotning (haqning) maksimal miqdorini belgilash yuzasidan tavsiyalar loyihasi.

6. Bank Boshqaruvi a‘zolariga to‘lanadigan mukofotning (haqning) maksimal miqdorini belgilash yuzasidan tavsiyalar loyihasi.

7. Bank Boshqaruvi Raisi va a‘zolarining vakolatlarini tasdiqlash to‘g‘risida. *(Xodimlar va tashkiliy rivojlanish Departamenti)* **Ma‘ruzachi –A.Orifjonov.**

8. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning Tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida.

9. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB va «Shanghai Construction Group Co. Ltd» o‘rtasidagi shartnomaga muvofiq, «Tashkent Siti» hududida Bosh bank binosining qurilishi bo‘yicha qo‘shimcha xarajatlar to‘g‘risida.

10. Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishining kun tartibini, o‘tkazish sanasini, vaqtini va joyini, ovoz berish byulletenining shakli va matnini, bank aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishida ishtirok etishga tayyorgarlik paytida aksiyadorlarga va davlat vakillariga taqdim etiladigan materiallar ro‘yxati va to‘plamini tasdiqlash.

QAROR QILDI:

1. 2023 yil uchun Bank Kengashi va Boshqaruvining yillik hisoboti loyihasida ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlarni, hamda Bankning rivojlanish strategiyasi bajarilishi uchun ko‘rilayotgan choralarni to‘g‘risida 2023 yil uchun yillik hisobot loyihasi, berilgan takliflarni hisobga olgan holda, ma‘qullansin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berdi: 9 ta a‘zo, shu jumladan

«Ma‘qul» – 9 ta ovoz, «qarshi» – yo‘q, «betaraf» – yo‘q.

2. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB ning 2023 yil uchun Yillik hisoboti ma‘qullansin va Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishiga tasdiqlash uchun kiritilsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berdi: 9 ta a‘zo, shu jumladan

«Ma‘qul» – 9 ta ovoz, «qarshi» – yo‘q, «betaraf» – yo‘q.

3. Tashqi auditor «Pricewaterhousecoopers» MChJning «O‘zsanoatqurilishbank» ATB ning 2023 yildagi moliyaviy faoliyatini tekshirish natijalari bo‘yicha xulosasi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berdi: 9 ta a'zo, shu jumladan

«Ma'qul» – 9 ta ovoz, «qarshi» – yo'q, «betaraf» – yo'q.

4. O'zbekiston Respublikasining "Tijorat siri to'g'risida"gi Qonuni hamda Bank boshqaruvining 2015 yil 21 maydagi 100-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATBning tijorat siri to'g'risida"gi nizom talablariga ko'ra, ushbu ma'lumotlar tijorat siri hisoblanadi. Ushbu qaror Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun kiritilsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berdi: 9 ta a'zo, shu jumladan

«Ma'qul» – 9 ta ovoz, «qarshi» – yo'q, «betaraf» – yo'q.

5. Bank Kengashining 2023 yil uchun faoliyatining yakunlari bo'yicha foydani taqsimlash va hisobot yili uchun bank aksiyalari bo'yicha to'lanadigan dividendlarning miqdori yuzasidan tavsiyalar loyihasi ma'qullansin va "O'zsanoatqurilishbank" ATB Aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun kiritilsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berdi: 9 ta a'zo, shu jumladan

«Ma'qul» – 9 ta ovoz, «qarshi» – yo'q, «betaraf» – yo'q.

6. O'zbekiston Respublikasining "Tijorat siri to'g'risida"gi Qonuni hamda Bank boshqaruvining 2015 yil 21 maydagi 100-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATBning tijorat siri to'g'risida"gi nizom talablariga ko'ra, ushbu ma'lumotlar tijorat siri hisoblanadi.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berdi: 9 ta a'zo, shu jumladan

«Ma'qul» – 9 ta ovoz, «qarshi» – yo'q, «betaraf» – yo'q.

7. Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun Bank Boshqaruvi Raisi va a'zolarining vakolatlarini 1 (bir) yilga tasdiqlash to'g'risidagi taklifi kiritilsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berdi: 9 ta a'zo, shu jumladan

«Ma'qul» – 9 ta ovoz, «qarshi» – yo'q, «betaraf» – yo'q.

8. "O'zsanoatqurilishbank" ATBning tashkiliy tuzilmasini Bank Kengashi a'zolarining fikrlari va takliflarini hisobga olgan holda ma'qullansin. Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga "O'zsanoatqurilishbank" ATB ning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash masalasi kiritilsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berdi: 9 ta a'zo, shu jumladan

«Ma'qul» – 9 ta ovoz, «qarshi» – yo'q, «betaraf» – yo'q.

9. «O'zsanoatqurilishbank» ATB va «Shanghai Construction Group Co. Ltd» o'rtasidagi shartnomaga asosan qo'shimcha xarajatlarni tasdiqlash masalasini 2023 yil yakunlari bo'yicha navbatdagi yillik Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi muhokamasi va tasdiqlash uchun kiritilsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berdi: 9 ta a'zo, shu jumladan

«Ma'qul» – 9 ta ovoz, «qarshi» – yo'q, «betaraf» – yo'q.

10. 2023 yil faoliyatining yakunlari bo'yicha Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi, 2024 yil 28 iyun kuni, Toshkent vaqti bilan ertalab soat 11.00 da chaqirilsin, aksiyadorlar va ularning vakillari Toshkent vaqti bilan ertalab soat 10.00 dan boshlab **masofadan elektron ovoz berish platformasi** <http://evote.uz/> yordamida ro'yxatdan o'tkaziladi.

10.1. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risida xabarnomani yuborish uchun aksiyadorlar reestrini shakllantirish sanasi tayinlansin - 2024 yil 3 iyun.

10.2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun jamiyat aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasi tayinlansin - 2024 yil 24 iyun.

10.3. Yig'ilish kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

- 1) Bank Kengashi va Boshqaruvining yillik hisobotlarini, hamda Bankning rivojlanish strategiyasi bajarilishi uchun ko'rilayotgan choralar to'g'risida 2023 yil uchun amalga oshirilgan choralar to'g'risida hisobotini tinglash.
- 2) 2023 yil uchun bankning yillik hisobotini tasdiqlash.
- 3) Bank foydasini taqsimlash va 2024-25 korporativ yili uchun to'lanadigan Bank Kengashining har bir a'zosiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning maksimal miqdorini belgilash.
- 4) 2024-2025 korporativ yil uchun Bank Boshqaruvi a'zolariga to'lanadigan mukofotning (haqning) maksimal miqdorini belgilash.
- 5) «O'zsanoatqurilishbank» ATB Boshqaruvi Raisi va a'zolarining vakolatlarini 1 (bir) yilga muddatga tasdiqlash to'g'risida.
- 6) Tashqi auditorni tasdiqlash, 2024 yil uchun bank faoliyatining auditini o'tkazish xizmatlariga haq to'lashning maksimal miqdorini belgilash.
- 7) «O'zsanoatqurilishbank» ATB ning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida.
- 8) «O'zsanoatqurilishbank» ATB va «Shanghai Construction Group Co. Ltd» o'rtasidagi shartnomaga muvofiq, «Tashkent Siti» hududida Bosh bank binosining qurilishi bo'yicha qo'shimcha xarajatlar to'g'risida.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berdi: 9 ta a'zo, shu jumladan

«Ma'qul» – 9 ta ovoz, «qarshi» – yo'q, «betaraf» – yo'q.

Korporativ maslahatchi



K. Alimov

Kotib



D. Abduqodirov

Bayonnomani rasmiylashtirish sanasi: 2024 yil “ 06 ” iyun.